



IJODIY MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

Aliyev I.T.

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Renessans ta'lim universiteti*

“Agar o'quvchi maktabda yaratishni o'rganmagan bo'lsa, hayotda u keyin shunchaki taqlid qiladigan va nusxa ko'chiradigan bo'ladi.”

L.N.Tolstoy

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ish, ijodiy mustaqil ish, ta'lim sifati, muammoli vaziyat, tashkilotchilik qobiliyat, o'z ustida ishlash qobiliyati, rivojlantirish, malakali va raqobatbardosh kadrlar.

Ключевые слова: самостоятельное образование, самостоятельная работа, творческая самостоятельная работа, качество образования, проблемная ситуация, организаторские способности, умение работать над собой, развитие, квалифицированные и конкурентоспособные кадры.

Key words: independent education, independent work, creative independent work, quality of education, problem situation, organizational skills, ability to work on oneself, development, qualified and competitive personnel.

РЕЗИЮМЕ:

Maqolada kredit-modul ta'lim tizimi sharoitida ijodiy mustaqil ishning muammolari ko'rib chiqiladi. Mustaqil ishlardan ijodiy mustaqil ishga o'tish zarurligi asoslanadi. Oliy o'quv yurtlarida mustaqil ijodiy ishlarga o'tishni tizimlashtirish usullari taklif etilmoqda.

РЕЗИЮМЕ:

В статье рассмотрены проблемы организации творческой самостоятельной работы в условиях кредитно-модульной системы образования. Обоснована необходимость перехода от самостоятельных работ на творческую самостоятельную деятельность. Представлены способы систематизации процесса перехода на творческую самостоятельную работу в высших учебных заведениях.

SUMMARY:

The article examines the problems of organizing creative independent work in the context of a credit-modular education system. The necessity of transition from independent work to creative independent activity is substantiated. Methods of systematizing the process of transition to creative independent work in higher educational institutions are presented.

Kirish. Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga uchrashi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu masalalarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yunalish deb yondashiladi..

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismanan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash"ga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish yosh kadrlarning kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tanqidiy va tahliliy yo'nalishlarga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini belgilaydi. Mazkur zarurat yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantiruvchi strategiyalarni tanlash hamda ushbu jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali tatbiq etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Mazkur masalani hozirgi kun nuqtay nazaridan chuqurroq o'rganadigan bo'lsak, albatta umumiy ajaratilgan soatning asosiy qismini ya'ni 60 %ga egalagan mustaqil ta'lim haqida fikr yuritishimiz zarur. Albatta bu jarayon qay darajada ekanligiga tuxtalmasdan, balki bu jarayonni qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligiga e'tibor qaratsak. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ekanligini taxlil etar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e'tirof etish mumkin.

Ma'lumki, ta'lim sifatini ta'minlash kredit modul tizimida nafaqat auditoriyada balki, auditoriyadan tashqari ishlar, boshqacha qilib aytganda o'qituvchining dars jarayonidagi bergan bilimlari faqat yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'layotgan bo'lsa, unda mustaqil ta'limning ahamiyati asosiy o'ringa chiqadi. Ayniqsa, mustaqil ta'lim orqali egalanadigan bilimlar darajasini va ko'lamini inobatga



oladigan bo'lsak, bu masala ta'lim jarayonining asosiy mexanizmi aylanadi. Lekin ushbu mexanizm to'g'ri ishlashi uchun albatta beriladigan topshiriqlar ya'ni mustaqil ishlar talabani yangi bilimlarni egallashiga stimuly berishi, tanqidiy fikrlashi va tinimsiz o'z ustida ishlashiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quv jarayonida mustaqil ta'limning talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi muammolarni hal etish doimiy dolzarb hisoblangan masala hisoblanadi. Shu bois, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori, shuningdek, mustaqil ish talqiniga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qila turib, shuni aytish mumkinki, o'quv jarayonida uning ahamiyatini avvaldan anglab yetganlarini ko'rish mumkin.

Talabani bilish faolligi va mustaqilligining eng yuqori darajasi uning ijodiy mustaqil ishi jarayonida namoyon bo'ladi, bunda talabani tubdan yangi bilim va moddiy va ma'naviy madaniyat qadriyatlarini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etishi nazarda tutiladi. Ijodiy ishning barcha turlaridagi topshiriqlar darsda turli yo'llar bilan yaratilishi mumkin bo'lgan maxsus muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishini rag'batlantiradigan shartlarni o'z ichiga oladi:

- a) muammoni o'qituvchining o'zi aniq ko'rsatish orqali;
- b) talabani o'zi tushunishi va ulardagi muammolarni shakllantirishi kerak bo'lgan shartlarni taqdim etish orqali;
- v) o'quvchi mustaqil ravishda yangi, qo'shimcha muammoni aniqlashi kerak bo'lgan yechim topish mantiqiga ko'ra, ko'proq yoki kamroq aniq belgilangan muammoni qo'yish orqali (muammoli vaziyatni qurishda nazarda tutilgan);
- d) nihoyat, o'quvchi "muammoli vaziyatni qurishda ko'zda tutilmagan" yangi muammoni mustaqil kashf etadigan vazifa qo'yish orqali.

N.G.Dmitruk o'z tadqiqot ishida ijodiy mustaqil ishlar yoshga qarab sinf va sinfdan tashqari ishlar tizimi maktab o'quvchilarining mustaqillik va ijodkorlik xususiyatlari va ehtiyojlari; hissiy qoniqish, muvaffaqiyat muhitida o'tkazilishi, faol kognitiv qiziqish, ijodkorlik va joziba namoyon bo'lishi talabalarning subyektiv tajribasi organik ravishda kiritilishi kerak [7].

Tadqiqotchi S.A.Ivanovning ta'kidlashicha, ijodiy mustaqil ish maktab o'quvchilari uchun mustaqil faoliyat tizimining tojidir. Bu faoliyat talabalarga ular uchun printsiplial jihatdan yangi bo'lgan bilimlarni olish imkonini beradi va bilimni mustaqil izlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Psixologlarning fikricha, muammoli, ijodiy muammolarni hal qilishda maktab o'quvchilarining aqliy faoliyati ko'p jihatdan ijodiy va ilmiy xodimlarning aqliy faoliyatiga o'xshaydi. Ushbu turdagi vazifalar ijodiy shaxsni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir [10].

Tadqiqotchi T.A.Tixinovanning fikricha, talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yondashuvi - bu shaxsning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishga shaxsiy yondashuv. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish talabalarni o'quv jarayonida rag'batlantirish usullaridan biridir [8].

Ijodiy mustaqil ish muammoli vaziyatni tahlil qilish, yangi ma'lumotlar olish, muammolarni hal qilish uchun vosita va usullarni mustaqil ravishda tanlashni o'z ichiga oladi (turli matnlarni mustaqil ravishda tuzish, o'quv tadqiqoti va loyiha topshiriqlari, kurs va dissertatsiyalar). Ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish ilmiy hisobotlarni, individual nostandart vazifalarni tayyorlashda, muammolarni hal qilishning yangi usullarini, tajribaning yangi variantlarini izlashda, faoliyatning yangi usullarini o'zlashtirishda va hokazolarda erishiladi[6].

Masalan, tadqiqotchi N.Ergasheva Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ▶ ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- ▶ berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- ▶ seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ▶ laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- ▶ hisob-grafik ishlarini bajarish;
- ▶ malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- ▶ nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- ▶ amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish (keys stadi);
- ▶ maket, model, badiiy asar, musiqa va namunalar yaratish;
- ▶ ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- ▶ o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. Bu ishlarni N.Ergasheva tomonidan ilmiy tashkil etish tavsiya etilgan [4].

M.A. Danilov "Ijodkorlikni o'rgatib bo'lmaydi, lekin siz qanday qilib ijodiy ishlashni o'rgatishingiz mumkin." Talabani darsga ijodiy yondashishga o'rgatish



uchun o‘qituvchi uy vazifasida hamma narsani ochiq ko‘rinishda ko‘rsatmaslikka intilishi, balki har doim fikrlash uchun "oziq-ovqat" berishi kerak [5].

Tadqiqotchi M.V.Patopova O‘z amaliy tajribalariga asoslanib, ijodiy ishning 2 turini ajratgan:

- majburiy;
- talaba xoxishiga ko‘ra;

Ushbu turlar uchun talabalar tomonidan muntazam ravishda katta ishtiyok bilan bajariladigan va nemis tilini o‘qitishda kommunikativ-faol yondashuvni amalga oshirish uchun muvaffaqiyatli asos bo‘lib xizmat qiladigan bir nechta turdagi ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqqan.

- Rivojlanayotgan ijodiy vazifalar turlari:
- Til kompetensiyasini rivojlantiruvchi ijodiy vazifalar turlari:
- Nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan ijodiy vazifalar turlari:
- Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ijodiy vazifalar turlari [11].

Bizning fikrimizcha, har qanday mustaqil ish albatta ijodiy ishning qiyinlik darajasi bo‘yicha qaysidir shakliga kiradi. Lekin mustaqil ishga ijodiy yondashuv orqali biz uning mazmunini o‘z maqsadimiz yo‘lida foydalangan holda talabaning bilimini oshirishga, ta’limga bo‘lgan qiziqishini ortirishimiz mumkin [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy mustaqil ishlarni tashkil etish faoliyatini rivojlantirish omillaridan foydalanishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari o‘rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv va tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 3-bobining “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan 1-§ da “Mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy

ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" [1] masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini ko'pligi, professor-o'qituvchilarning auditoriya soatlaridan bo'shamsligi ya'ni vaqtining kamligi, shuningdek ijodiy mustaqil ishlarni tashkil etish malakasining yetarli emasligi va talabalarning elektron ko'rinishdagi mustaqil ishlarni tashkil etish ustida ishlamasligi sababli talabalarda mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan munosabati juda ham ijobiy emas. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllariga bag'ishlangan uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar ham deyarli yo'q deyishimiz mumkin. Baholanki ta'lim sifatini ta'minlash haqida gapirishdan oldin usha ta'lim sifatini ta'minlaydigan o'quv rejadagi umumiy soatning qariyb yarimidan ko'pirog'ini qamrab olgayotgan mustaqil ta'lim soatlari taqdiri haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Endi talabalarining ijodiy mustaqil ishlariga tuxtalsak, ya'ni talabaning o'zi tomonidan to'liq bajariladigan, ijodiy fikrlash natijasi sifatida vujudga keladigan mustaqil ishga aytiladi.

Ma'lumki har qanday topshiriqlar, vazifalar oddiydan murakkabga qarab qiyinlashishi kerak. Shu o'rinda talabalarga beriladigan mustaqil ishlar ham. Albatta bu mustaqil ishlar topshiriqlari kim tomonidan qanday tayyorlanganligiga bog'liq. Shuning uchun mustaqil ishlarni yetuk mutaxassislar tayyorlashi zarur. Bizning fikrimizcha ijodiy mustaqil ishlarni qo'yidagicha tizimlashtirsak maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. O'qiv o'rganib xulosa yozish yoki namuna, algoritm (esse, annotatsiya, xulosa va takliflar, taqriz...) bo'yicha ishlash.
2. Mavjud bilimlarni bir-biri bilan bog'lash va umumlashtirish, tizimlashtirish (skanvord, krassvord, grafik organayzerlarni tayyorlash).
3. Birgalikda ishlash orqali yangi bilimlar (guruhda o'quv loyihalari, keyslar tayyorlash yoki ishlab chiqish...) ni egallash.
4. Qisman ilmiy-tadqiqot ishlari (referat, taqdimot, glosariy tayyorlash,...)ni tayyorlash



5. Mustaqil bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari (tezis, maqola, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlar....)ni tayyorlash.

Qaysidir mustaqil ishni talabalarga topshiriq sifatida bermaylik, albatta ularni ushbu ishdan ko‘zlangan maqsadga mosligini aniqlash zarur. Keyin esa uni kim yoki kimlar bajarishini, qancha vaqtda bajarilishi mumkinligini o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi. Bu masalaning oxirgi natijasi o‘qituvchi tomonidan ishning baholanishi hisoblanadi. Albatta bu ish plagiat dasturidan o‘tgan va ushbu turdagi mustaqil ish uchun baholash mezonini ishlab chiqilgan bo‘lsa, obyektiv baholashga loyiq deb hisoblasa bo‘ladi. Yuqoridagilarning barchasi talabalarning keyingi mustaqil ishlarni bajarishga bo‘lgan ishtiyoqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli mustaqil ishlarning ichida ijodiy ko‘rinishga ega bo‘lgan ishlar o‘qituvchidan ancha mehnat va ma‘lum bir vaqt talab etadi. Bu masalani ham inobatga olish kerakligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa va takliflar. Ijodiy mustaqil ishlarni tashkil etish o‘rqli biz mustaqil fikrlaydigan talabalarni kelajakda esa ijodkor mutaxassislarni tayyorlashimiz mumkin. Faqat talabalar mustaqil fikrlay boshlaganidagina o‘quv jarayoni ular uchun qiziqarli va zavqli mashg‘ulotga aylanishini har bir o‘qituvchi tusunishi shart.

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning ijodiy mustaqil ta‘limini tashkil etish orqali ta‘lim sifatini ko‘tarishimiz, o‘z ustida ishlash qobiliyatini shakllantirishimiz hamda eng muhimi talabalarni ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishini orttirishimiz va shu orqali malakali, raqobatbardosh kadr bo‘lishini ta‘minlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”sini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Aliev I. Universitetda talabalarning mustaqil ishini tashkil etishga ijodiy yondashuvning ahamiyati // Innovations in technology and science education. -2024.-Volume-3, issue-22. B- 386-399.
3. S.Umarov Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlar “FarDU. ILMYIY XABARLAR – NAUCHNIY VESTNIK. FerGU” jurnal.3-son 2021-yil. 193-196 b.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/musta-il-va-izhodi-ishlash-faoliyatlarini-rivozhlantirish-ga-aratilgan-mash-ulotlarini-tashkil-etish/viewer>
5. Danilov M.A. Vospitaniye u shkolnikov samostoyatelnoy i tvorcheskoy aktivnosti // Sovetskaya pedagogika. – 1961. – № 8. – S. 90-95.
6. <https://studfile.net/preview/2918501/page:4>
7. <https://www.dissercat.com/content/tvorcheskie-samostoyatelnye-raboty-kak-usloviye-samo-realizatsii-lichnosti-uchashchegosya>
8. <https://textarchive.ru/c-1824553.html>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/tvorcheskie-zadaniya-kak-sredstvo-razvitiya-kreativnyh-sposobnostey-starsheklassnikov-na-urokah-matematiki>
10. <https://multiurok.ru/blog/samostoiatelnaia-rabota-ee-mesto-i-znachenie-na-uroke.html>
11. <https://urok.1sept.ru/articles/504452>